



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

5 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 5, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 5, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2022

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2022-3>

Бош муҳаррир:

Холбеков Муҳаммаджон

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Тўхтасинов Илҳом

ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:

Холбеков Муҳаммаджон

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Тухтасинов Илҳом

к.ф.н., доцент (Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

Editor in Chief:

Kholbekov Muhammadjan

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

Tuhtasinov Ilhom

Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umaroglu

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibdulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Sharipov S.S. ЛЕКСИКОГРАФИЯ (ТАРЖИМА ЛЕКСИКОГРАФИЯСИ) РИВОЖЛАНИШИНИНГ АСОСИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	5
2. Akhadova Guzal Imatulloevna, Mavlyanova Nilufar Suvankulovna METHODOLOGY AND PRINCIPLES OF USING ROLE PLAYING IN FOREIGN LESSONS.....	12
3. Atayeva Khusniya Kurashevna, Fayziyeva Yulduz Yusupovna USING INTERACTIVE TECHNOLOGIES AND TEACHING METHODS AT THE RUSSIAN LANGUAGE LESSON.....	17
4. Absamatova Gulhayo Bakhodirovna LINGUISTIC FEATURES OF SIGN LANGUAGE AUTOMATIZATION.....	24
5. Shuhratova Visola jamshid qizi KAZUO ISHIGURONING "DAFN ETILGAN GIGANT"ASARIDAGI KONSEPTLAR UYG'UNLIGI.....	30
6. Bazarova Shahlo Shuxratovna KOREYS ADIBASI SHIN KYON SUK IJODINING O'ZIGA XOSLIGI XUSUSIDA.....	36
7. Kasimova Adiba Nasirovna TRANSLATION METHODS AND TECHNIQUES OF PUBLICISTIC MATERIALS.....	41
8. Арзикулова Хуршида Акабаралиевна “ГОРАЦИЙ” ТРАГЕДИЯСИДА ИНСОНИЙ ФАЗИЛАТЛАР ВА ОИЛАВИЙ БУРЧ.....	47
9. Mamadjanova Nargiza Mahmudjanovna ZAMONAVIY INGLIZ TILIDA MUHOJIRATNING KOMMUNIKATIV FUNKSIYASI.....	52
10. Икромов Нигина ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА (НА ПРИМЕРЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ Ч.АЙТМАТОВА “ПРОЩАЙ, ГУЛЬСАРИ!”).....	58
11. Абдусаматов Зафарбек Нурмат ўғли ЎЗБЕК ТИЛИДА АНТРОПОНИМЛАР ТУРИ ВА ИФОДА ШАКЛЛАРИ.....	65
12. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSIDA DIALEKTAL KORPUS YARATISHNING NAZARIY MASALALARI.....	70
13. Achilova Noila Hamroqulovna SUYUQLIK MIQDORINI ANGLATUVCHI LISONIY BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	75
14. Tadjibayeva Gulzoda ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ANTROPOTSENTRIK PARADIGMA.....	81
15. Begimqulova Dilobar INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA REDUPLIKATIVLIKNING MORFOLOGIK IFODALANISHINING QIYOSIY TAHLILI.....	86
16. Amonova Zilola Qodirovna, Axrorova Zufnunabegim Rizvonovna HUSAYNIYNING BADIY MAHORATI.....	93



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Amonova Zilola Qodirovna,

Buxoro davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, f.f.d.

Axrorova Zufnunabegim Rizvonovna,

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti

filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

HUSAYNIYNING BADIY MAHORATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

O'zbek mumtoz adabiyotida Husayniy va uning ijodiy merosi alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, shoirning devoni va "Risola" asari bilan o'zining keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Shoir devonidagi g'azallar turkiy til jozibasini ko'rsatuvchi she'rlardan sanaladi. Husayniy oshiqona mavzudagi g'azallarida oshiq va ma'shuqa munosabatini ifodalashda talmeh, tazod, tanosub va so'z takroriga asoslangan san'atlardan faol foydalangan. Maqolada Husayniy devonidagi oshiqona mavzudagi to'rt g'azali tahlilga tortilgan. Mazkur g'azallar g'oyaviy-badiiy tahlil qilinib, lug'atlar asosida sharhlashga harakat qilingan. Shuningdek, shoirning Alisher Navoiy g'azallaridan ilhomlanib, uning ayrim g'azallariga javobiya tarzida yozilgan she'rlaridan ikkitasi tahlil obekti sifatida olingan. Ushbu masalani yoritishda Husayniyning g'azal janri taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga, boshqa shoirlarga o'xshamagan o'ziga xos uslubiga, badiiy mahoratiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, g'azal, Husayniy, "Alisher Navoiy, badiiy mahorat, talmeh, tanosub, so'z takroriga asoslangan san'atlar.

Amonova Zilola Qodirovna,

Associate Professor of Uzbek Language and

Literature, Bukhara State University, DSc.

Akhrorova Zufnunabegim Rizvonovna,

Bukhara State University, Faculty of Philology,

3rd year student of philology and language teaching (Uzbek).

HUSSEINI'S ARTISTIC SKILL

ANNOTATION

Husseini and his creative heritage have a special place in Uzbek classical literature. In particular, the poet's Divan (collected poems) and the work "Risola" are distinguished by their wide range. The poems in the poet's divan are among the poems that show the charm of the Turkish language. In his poems on love, Hussein actively used the arts of talmeh, tazad, tanosub, and repetition to express the relationship between a lover and a lover. The article analyzes four ghazals on the romantic theme of Hussein's book. These poems are ideologically and artistically analyzed

and interpreted on the basis of dictionaries. Also, two of the poet's poems, inspired by Alisher Navoi's ghazals, written in response to some of his ghazals, were taken as the object of analysis. In covering this issue, attention is paid to Husseini's contribution to the development of the ghazal genre, his unique style and artistic skills, unlike other poets.

Keywords: classical literature, ghazal, Husseini, “Alisher Navoi, artistic skill, talmeh, tanosub, arts based on word repetition.

Амонова Зилола Кодировна,

Доцент кафедры узбекского языка и литературы
Бухарского государственного университета,
доктор философских наук.

Ахророва Зуфнунабегим Ризвоновна,

Бухарский государственный университет,
филологический факультет,
3 курс факультета филологии
и преподавания языков (узбекский язык)

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ МАСТЕРСТВО ХУСЕЙНИ

АННОТАЦИЯ

Гусейни и его творческое наследие занимают особое место в узбекской классической литературе. В частности, широким размахом отличается кабинет поэта и произведение «Рисола». Стихи на диване поэта относятся к числу стихов, которые показывают очарование турецкого языка. В своих стихах о любви Хусейни активно использовал искусство талме, тазад, таносуб и повторение, чтобы выразить отношения между влюбленным и влюбленным. В статье анализируются четыре газели на романтическую тему кабинета Хусейни. Эти стихотворения идейно-художественно анализируются и интерпретируются на основе словарей. Также в качестве объекта анализа были взяты два стихотворения поэта, навеянные газелями Алишера Навои, написанные по мотивам некоторых его газелей. При освещении данного вопроса уделяется внимание вкладу Хусейни в развитие жанра газелей, его неповторимому стилю и художественному мастерству, непохожему на других поэтов.

Ключевые слова: классическая литература, газель, Хусейни, «Алишер Навои», художественное мастерство, талме, таносуб, искусство, основанное на повторении слов.

Husayn Boyqaro – o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida o‘zining betakror, ravon uslubda yozilgan g‘azallari bilan alohida o‘ringa ega bo‘lgan ijodkorlardan biridir. Uning turkiy tildagi Devoni va “Risola” asari bizgacha yetib kelgan. Ma’lumki, XV asr adabiyotimiz tarixida muhim ahamiyat kasb etadigan davr sanaladi. Mazkur asrda adabiyot va san’atning ulug‘ darg‘alari yetishib chiqdi. Bu borada Alisher Navoiy alohida o‘rin egallaydi. Shunday bo‘lsa-da, Hazrat Navoiyning deyarli barcha asarlarida zikr etilgan temuriylar yoki Husayn Boyqaro ijodi ham o‘z mavqei bilan ajralib turadi. Zero, Alisher Navoiy bejizga “Majolis un nafois” asarining 8-majlisida Husayniy ijodi tahliliga to‘xtalmagan. Yoki “Hayratul abror” dostoni hikoyatlaridan birida Shoh G‘oziy sifatida e’tirof etgan. Qolaversa, Boyqaroning Hirot taxtiga o‘tirishini Hirot osmonidagi hilol – yangi chiqqan oyga qiyoslab, “Hiloliya” qasidasini yaratdi. Alisher Navoiy nafaqat turkiy tildagi asarlarida, balki forsiy qasidalarida ham Husayniy nomini alohida muhabbat va iftixor bilan tilga oladi. Bu kabi dalillarni ko‘plab keltirish mumkin. Husayniy ham o‘z davri an‘analarini davom ettirib, o‘ziga xos novatorlik asosida chiroyli, dilkash g‘azallar bitdi. Ularni to‘plab devon holiga keltirdi. Shuningdek, nasriy yo‘lda “Risola” asarini bitib, unda Hazrat Navoiyga alohida ta’riflar berdi. Boyqaro g‘azallarining o‘z ta’sir doirasi va o‘z kitobxoni bor.

Husayniyning badiiy mahoratiga baho berish uchun shoir ijodidagi ayrim g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy tahliliga e’tibor qaratamiz:

Ohkim ishqim o‘tining bir zamon oromi yo‘q,
Istagan orom ul o‘tqa juz xayoli xomi yo‘q.

Husayniy devonining 77-gʻazali boʻlgan mazkur “Yoʻq” radifli sheʼr Alisher Navoiyning “Badoyi ul- bidoya” devonidagi 331-gʻazaldan ilhomlanib yaratilgan.

Maʼlumki, mumtoz adabiyotimizda ishq oʻti, uning oshiq qalbini beorom aylashi anʼanaviy tarzda kuylanib kelinayotgan mavzulardan sanaladi. Shoir shu anʼanani oʻziga xos tarzda davom ettirgan. Yaʼni ishq oʻtidan oshiq uchun bir zamon orom yoʻq, agar oshiq ul oʻtdan orom istasa uning istagi xom xayoldan boshqa narsa emas. Husayniy mazkur mulohazalar ifodasida soʻz takroriga asoslangan sanʼatlardan boʻlgan qaytarish sanʼatining radd ul hashr il –al hashr turidan bir baytda ikki marta foydalangan. Bu oʻt va orom soʻzlari boʻlib, ham birinchi misrada, ham ikkinchi misrada aynan takrorlangan. Bu sanʼat takroriyligi fikr taʼsirchanligini yanada oshirishga xizmat qilgan. Shoir tanosib sanʼati imkoniyatidan foydalanib, birinchi baytda ishq oʻti haqida gapirgan boʻlsa, ikkinchi baytda unga mutanosib holda sham va parvona tushunchasini olib kiradi:

Vasl shamʼidin yorub, parvona holim ne bilur?

Shomi hajrimdek chu oning bir qorongʻu shomi yoʻq.

Shoir shomi hajrimdek parvonaning bir qorongʻu shomi yoʻqligi uchun, vasl shamidan oʻtib, holimni qaydan bilsun, deya tajohilu orifdan maqsad ifodasida oʻrinli foydalangan. Maʼlumki, adabiyotimiz tarixida sham va parvona obrazlar tizimi ham oshiqona, ham orifona gʻazallar tarkibida qoʻllaniladi. Sham maʼshuqa, parvona oshiqqa nisbatan ishlatiladi. Mazkur gʻazalda shoir oshiq ruhiy holatini ifodalashda tazod (vasl - hajr), tanosub (shamʼ - parvona) dan ham foydalanadi. Shuningdek, taʼsirchanlikni taʼminlash maqsadida qaytarish sanʼatining radd ul- ibtido il-al-hashv turini ishlatadi. Yaʼni ikkinchi misra boshidagi soʻz (shom) ikkinchi misra oʻrtasida (shom) takrorlangan. Shoir navbatdagi baytda maʼshuqa jamoli taʼrifini davom ettiradi:

Orazingni oy desam, ermas muvajjah nechakim,

Oyning ofatligʻ koʻzgu ruxsorai gulfomi yoʻq.

Shoir nazdida maʼshuqa orazini oyga tashbeh etib boʻlmas, chunki oyning muvajjah (maʼqul, yoqimli)ruxsorai gulfomi (gulrangi) yoʻq. Demak, maʼshuqa orazi taʼrifida oy tashbehidan foydalanib boʻlmas. Mazkur baytda ham rad ul hashv il-al ibtido, yaʼni birinchi misra oʻrtasidagi soʻz (oy), ikkinchi misra boshida (oy) sanʼati ishlatilgan. Husayniy soʻz qoʻllashda oʻziga xos yoʻldan borib, maʼshuqaning jon olguvchi chiroyli koʻzlarini taʼriflar ekan, “kofir koʻzing” deya taʼrif beradi. Kofir islomni tanimaydigan gʻayridin maʼnosini anglatga-da, gʻazallarda rahmsiz sevgili maʼnosida ham keladi. Shoir shu anʼanani davom ettirgan holda ayni mulohazani maʼshuqaning koʻziga nisbatan qoʻllaydi. Husayniy tajohulu orif (Vah ne holatdurki) imkoniyatidan oʻrinli foydalanib, mahbubani “bir kofircha ham islomi yoʻq”, deya zikr etadi. Yaʼni birinchi misrada “kofir” soʻzi faqat maʼshuqaning jon oluvchi koʻziga nisbatan qoʻllanilgan boʻlsa, ikkinchi misrada, esa bevosita maʼshuqaning oʻzini nazarda tutadi:

Muncha din ahlining islomin olib kofir koʻzung,

Vah ne holatdurki bir kofircha ham islomi yoʻq.

Eʼtirof etish lozimki, gʻazalning matlaʼsida boshlangan qaytarish sanʼati orqali taʼsirchanlikni erishishga boʻlgan ehtiyojmandlik yuqoridagi baytda ham davom ettirgan. Yaʼni radd ul-hashv (kofir) il-al hashv (kofir) bilan maʼshuqaning rahmsiz sevgili, oshiqqa nisbatan eʼtiborsiz ekanligiga urgʻu beradi. Shoir navbatdagi baytda ham maʼshuqa taʼrifini davom ettiradi:

Xalq sayd aylarda teng ermas, sening birla quyosh,

Zulfu xolidin chu oning dona birla domi yoʻq.

Baytning lugʻati: sayd – ov, dom – tuzoq. Nasriy bayon qilganda, xalqning ov qilishi, sening birla teng emas, chunki uning zulfu xolidan dona va tuzogʻi yoʻq. Yaʼni shoir juda chiroyli tasvir yaratadi. U maʼshuqaning zulfini tuzoqqa, xolini tuzoqdagi danaga tashbeh etadi. Xalqning sayd – ovdagi tuzoq va donasidan maʼshuqaning tuzoq va donasi (zulfu xoli) tubdan farq qiladi. Mazkur tashbeq mumtoz adabiyotimizdagi anʼanaviy oʻxshatishlardan sanaladi. Husayniy shu mumtoz anʼanani davom ettirgan. Gʻazalning navbatdagi bayti begona bayt boʻlib, bunda shoir umrni maqsadsiz oʻtkazmaslik lozimligiga urgʻu beradi:

Boʻlsa olam kamroni komsiz umr oʻtkarur,

Kimki bir shirin takallumning labidan komi yoʻq.

Baytning lug'ati: **kamron** – 1) o'z maqsadiga erishgan, baxtli; 2) hokim, hukmronlik qiluvchi. **Kom** – 1) tilak, maqsad, istak; 2) bahra, bahra olish; **Takallum** – so'zlash, gapirish. Nasriy bayon qilganda, olam hokimi, shohining umrni komsiz (maqsadsiz) o'tkazishi, xuddi shirin so'z so'zlashuvchining gapirishidan maqsadi yo'q ekanligi kabidir, degan ma'no anglashiladi. Ya'ni shoir umrni g'animat tutmoq lozimligini, shu berilgan o'tkinchi hayotni hech bir kom (maqsad)siz o'tkazmaslik kerakligiga urg'u beradi. Mazkur baytdagi fikrlarning ta'sirchan ifodasi uchun g'azal davomida qo'llagan qaytarish san'atini ma'qul ko'radi. Bunda takrorga asoslangan sanhatning radd ul-hashv (kom) il-al hashv (kom) turi qo'llanilgan. Husayniy g'azal maqta'sida umr g'animatligi bilan bog'liq mulohazalarni davom ettiradi:

Ey Husayniy, necha kun xush tut bu foniyl dahrni

Kim emas Jamshid har shahkim, qo'linda jomi yo'q.

Baytning lug'ati: foniyl – o'tkinchi; dahr – dunyo, olam, zamon, davr; xush – 1) yaxshi, ma'qul, 2) shod, xursand. Nasriy bayon: Har qanday shoh Jamshid bo'la olmaydi, chunki qo'lida jomi yo'q. Shuning uchun ey Husayniy bu o'tkinchi dunyoda xush (shod, xursan) bo'l.

Mazkur baytda shoir sifatlash (foniyl dahr) va talmeh (Jamshid) san'atlaridan o'rinli foydalangan. Baytda qayd etgan Jamshid va uning jomi bilan bog'liq fikrlar mumtoz adabiyotimizda o'z aksini topgan. Rivoyat qilishlaricha, qadimgi Eronning afsonaviy podshohi Jamshid "jomi jahonnamo" – jahonni ko'rsatuvchi jom ixtiro qilgan bo'lib, unda dunyodagi nafaqat hozirgi, balki o'tmishda yuz bergan va kelajakda sodir bo'ladigan voqea-hodisalar ham aks etar ekan. May qadahi va komil inson qalbini ham ilohiy sirlarni o'zida saqlashi jihatidan Jamshid jomiga nisbat beradilar. Jamshid jomidagi may ichgan bilan sira tugamas emish. Demak, rivoyat mazmunidan anglash mumkinki, har qanday shoh, hatto qo'lida jomi bo'lsa ham Jamshid bo'la olmaydi. Chunki uning jomi "jomi jahonnamo" edi. Shoir ayni mulohazalar orqali bir jihatdan, olamning o'tkinchiligi urg'u bersa, ikkinchi jihatdan, har damni g'animat bilib, xush va shukrona holda o'tkazish lozimligini uqtirish bilan baytni yakunlaydi. Husayniyning g'azal maqta'sida keltirgan xulosasi asosli va o'rinli bo'lib, hozirgi zamon uchun ham o'z ta'sirini yo'qotmagan. Bu xulosalarga e'tiborli bo'lish va amal qilish har bir inson uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Husayniyning tahlilga tortiladigan navbatdagi g'azali ham oshiqona mavzuda yozilgan bo'lib, she'riy matnda badiiy-tasviriy vositalardan o'rinli foydalanilgan. Birinchi baytida shoir ishq bobida o'zini Majnundan ustun deb biladi:

Ishq aro Majnunni dermenkim o'zumga o'xshatay

Hushini zoyil qilib devonalig'ni o'rgatay.

Baytning lug'ati: zoyil – yo'q bo'luvchi, yo'qoladigan. Nasriy bayon: ishq bobida Majnun menga o'xshaydi. Uning hushini yo'qotib, devonalikni unga o'rgatay.

Shoir ishq bobida o'zining nechog'lik ustunligini ta'kidlab, hatto Majnun hushini o'zidan ayirib, unga devonalikni, jununlikni o'rgatadigan darajada ekanligiga urg'u bergan. Albatta baytda qo'llanilgan talmeh va mubolag'a san'ati fikr ta'sirchanlini ta'minlagan. Husayniy birinchi baytda o'zining ishq bobidagi mavqeyini ko'rsatsa, ikkinchi baytda esa, o'z ruhiy holatini ifodalaydi:

Subhi vasl-u shomi hijrondek necha olam elin

Bulajab holimg'a gohi kulduray, gah yig'latay.

Mazkur baytda lug'at asosida so'zlar ma'nosini keltirishga hojat yo'q. Chunki barcha so'zlar mazmuni tushunarli. Nasriy bayon: Ertadan shomgacha bul ajab holim bilan olam elini goh kuldiray, goh yig'latay.

Ma'lumki, oshiqning ahvoli ko'p hollarda odamlar uchun ajabtovur sanalgan va bu ruhiy holat kishilarning kulgusini qistagan, ammo ayrim paytlarda oshiqqa rahm etib uning mazkur ahvoliga achinib ko'z yosh to'kishgan. Shoir o'zining oshiqlik holati ana shunday olam elini kuldirib, yig'latadigan darajada ekanligini qayd etadi. Baytda tazod (subh-shom; vasl-hijron; kulduray-yig'latay) san'ati ketma-ket ishlatilgan. Oshiqlikning ruhiy holati va darajasi bilan bog'liq mulohazalar keyingi baytda ham davom ettiriladi:

Jon berurmen hajrida za'fimdin el ko'rmas meni,

Ishq aro har necha dermenkim o'zumni ko'rsatay.

Baytning lug'ati: hajr – ayriliq, judolik, yetisha olmaslik; za'f – kuchsizlik, holsizlik, kasallik,

Nasriy bayon: Ayriliqdan jon berurman, kuchsiz va holsizligim tufayli el meni ko'rmaydi. Shuning uchun ishq bobida o'zimni ko'rsatay deyman.

Bilamizki, oshiqona g'azallarda oshiq ma'shuqa hajrida jon berishga tayyor, ishqdan jismu joni za'f (kuchsiz) holga kelgan, ammo vasl uchun mardona harakat qiluvchi tarzda ifodalanadi. Husayniy ana shu an'anaviy ifodadan foydalanib, oshqlik darajasi va ruhiy holati tasvirini baytda singdirgan. Shoir navbatdagi baytda ma'shuqa bilan uchrashish uchun imkoniyat izlaydi va uni topadi:

Uns tutmishmen kiyiklar birlakim, ul shahsuvor
Ovg'a kelganda anga bu nav' o'zumni uchratay.

Baytning lug'ati: uns – yaqinlik; shahsuvor – ot minishga mahoratli.

Nasriy bayon: O'zimni kiyiklar birla yaqin tutamanki, ot minishga mahoratli ma'shuqa kelsa, o'zimni unga uchratay, ya'ni u meni ko'rsin.

Mumtoz adabiyotimizda ma'shuqaga nisbatan bir qancha sinonimlar ishlatiladi. Shulardan biri shahsuvordir. Bu so'z ot minishga mahoratli ma'nosini anglatadi-da ma'shuqa nazarda tutiladi. Shoir nega aynan kiyiklar birla o'zini yaqin tutmoqchi? Chunki ot mangan ma'shuqa ovga kelsa yoki sayr qilib yurganda unga o'zi kabi go'zal va chaqqon kiyiklar hamroh bo'ladi. Shu bois oshiq ma'shuqaning ovga kelganida kiyiklar oldida o'zini ko'rishiga umidvor bo'ladi. Shoir har qancha harakat qilmay, baxtim uyqudan ko'z ochmas, deya navbatdagi baytda o'z mulohazalarini davom ettiradi:

Chun ko'z ochmas uyqudin baxtim ne sud, ey do'stlar,
Gar fig'ondin har kecha olam elini uyg'atay.

Baytning lug'ati: sud - foyda, bahra, naf'; fig'on – nola, ohu-zor, dod-faryod.

Nasriy bayon: Har kecha elni nola, ohu-zordan uyg'otaman, ammo nefoyda, do'stlar, o'z baxtim uyqudan ko'z ochmaydi.

Shoirning lirik qahramoni el g'ami bilan qayg'uradigan xalqparvar inson. Xalqni fig'ondan har kecha (doim) uyg'otguvchi najotkor, ammo o'z baxti uyqudan ko'z ochmaydi. Husayniy tashxis (baxtning uyqudan ko'z ochishi) va mubolag'a (elni har kecha fig'ondan uyg'otish) orqali ta'sirchan fikr ifodasiga erishgan. Mazkur baytda shoir do'stga murojaat qilsa, navbatdagi baytda ham yana do'stga, rafiqqa murojaat qiladi:

Ko'ksunga tosh urmog'imni ayb qilma, ey rafiq,
Qo'yki, anda qolg'ig'an paykonlarini o'rnatay.

Baytning lug'ati: paykon – 1) kamon o'qining uchi, 2) kiprik. Rafiq – do'st.

Nasriy bayon: Ko'ksingiz tosh urishimni sen ayb qilma, ey rafiq. Men qolgan paykonlarni – yorning kipriklarini qalbimga o'rnatay.

Oshiq hijron iztiroblari tufayli ko'ksiga tosh uradi va ayni holati uchun do'stiga uni ayb etmasligini o'tinib so'raydi. Zero, oshiq o'z qalbiga ma'shuqa kipriklarini qadashga ham tayyor. Baytdagi mubolag'aviy tasvir nihoyatda ta'sirchan yaratilgan. G'azalda ifodalangan fikrlar maqta'da o'z yakunini topadi:

Chun Husayniy ko'ngli har dam bir taraf o'voradur,
So'z desang yuzkim javobida ko'ngilni to'xtatay.

Mazkur baytda lug'at asosida so'zlar ma'nosini keltirishga hojat yo'q. Chunki barcha so'zlar mazmuni tushunarli. Nasriy bayon: Husayniyning ko'ngli har doim bir taraf bilan ovora, band, agar so'z desang, javobi uchun ko'ngilni to'xtatishga tayyor.

Mazkur oshiqona mavzudagi g'azalda shoir chiroyli, yakuniy xulosalarini beradi. Ya'ni oshiq ko'ngli doim "bir taraf" – ma'shuqaning yodi, xayoli bilan band, ovora. Ushbu g'azal shoirning oshiqona mavzudagi eng sara g'azallaridan biri hisoblanadi.

Husayn Boyqaro turkiy adabiyotda o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkorlardan biridir. Husayniy taxallusi bilan ijod etgan shoir haqida bir qancha manbalar ma'lumot bergan. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Z.M.bobur asarlari shular jumlasidadir. Husayn Boyqaro davrida saltanat poytaxti Hirot butun Sharqda ilm, san'at va adabiyotning yashnagan markaziga aylandi. U san'at va adabiyot ahliga homiylik qilish bilan bir qatorda, manbalarda qayd etilishicha, ijod ahliga qarata turkiy tilda asarlar yozish haqida maxsus farmon ham chiqargan. Shu bois Husayn Boyqaroning turk adabiyoti va tili

soxasidagi faoliyati diqqatga sazovordir. Uning gʻazallaridagi mavzuʻ rang-barangligi, badiiyatdagi kashfiyotlar, noyob tashbihlar bilan ajralib turadi. Devonida oshiqona mavzudagi gʻazallar salmoqli oʻrin egallaydi. Shoir tarannum etgan ishqning qudrati va oshiqning iztiroblari, intilishlarini kitobxon qalbida muhrlanib qoladi. Husayniy sheʻriyatida Alisher Navoiy anʼanalari yaqqol koʻzga tashlanadi. Tahlillar davomida bunga amin boʻlish mumkin. Husayniy gʻazallari tilining soddaligi, ravonligi bilan ham ajralib turadi. Shoir ijodida tazod, tanosub, talmeh, qaytarish kabi badiiy sanʼat turlaridan keng ishlatilganligini koʻrish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar toʻplami. XX jildlik. I jild. Badoyeʻ ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987. – 689 b.
2. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar toʻplami. XX jildlik. II jild. Navodir un-nihoya. – Toshkent: Fan, 1987. – 622 b.
3. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar toʻplami. XX jildlik. III jild. Gʻaroyib us-sigʻar. – Toshkent: Fan, 1987. – 575 b.
4. Navoiy A. Gʻazallar, sharhlar. – Toshkent: Kamalak, 1991.– 176 b.
5. Navoiy asarlari lugʻati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S. Ibrohimov. Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1973. – 784 b.
6. Vohidov R., Eshonqulov H. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti, 2006. – 528 b.
7. Husayn Boyqaro. Shoh va shoir. T.; “Sharq”, 1995 y.
8. Axrorova Z.R. Uvays Qaraniy Attor va Navoiy talqinida. BuxDU Ilmiy axborotnomasi 2020yil 2-son, B. 219-223
9. Amonova Z.K. Voprosy vliyaniya xurufitskogo ordena na uzbekskuyu klassicheskuyu literaturu XV – XVII vekov. Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. Filologiya; Iskusstvedeniye. Vypusk 53. – Chelyabinsk: Izdatelstvo Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta, 2011 g. – № 11 (226), – S.8 – 12.